

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**I RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2-jild, 1-son (yanvar, 2026-yil). – 80 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 8-yanvar

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Foziljonov Khojiakbar

KEY STAGES OF RECOVERY OF VISUAL INFORMATION FROM SIDE ELECTROMAGNETIC RADIATION VIDEO PATHS OF COMPUTING SYSTEMS 5-9

IQTISODIYOT FANLARI

Murtazayev Isabek

ZARAFSHON MINTAQASI SHAROITIDA

BUXORO VILOYATI SANOAT RIVOJLANISHI 10-13

Mamanov Muxammadamin

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TURIZM KORXONALARINI SAMARALI

BOSHQARISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 14-18

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA ERKINLIK VA XAVFSIZLIKNING ETIK CHEGARALARI 19-24

FILOLOGIYA FANLARI

Muzaffarov Javlon

UZUKLAR HUKMDORI" ROMANIDA ARXAIIK EPOS AN'ANALARI RIVOJI 25-27

Po'latova Lobar

O'ZBEKISTON MTRK AXBOROT DASTURLARIDA BOSHLOVCHINING NUTQ MADANIYATI VA

UNING AUDITORIYAGA TA'SIRI 28-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Xomidjonov Abrorjon

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QUV MOTIVATSIYASINI OSHIRISH

STRATEGIYALARI 37-42

Buriyeva Sobira

YAPONIYADA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINI TAYYORLASH VA

QAYTA TAYYORLASH TIZIMINING O'ZIGA XOS JIHATLARI 43-46

Nodirova Feruza

SHE'RIYATDA BADIY OBRAZNING O'ZIGA XOSLIGI

(Sa'dulla Hakim she'riyati misolida) 47-54

Sodiqova Gulnora

XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA ISH BERUVCHILARNI KASBIY TA'LIM TIZIMIGA

JALB QILISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI 55-60

Arustamyan Yana, Toshpulatov Omonullokhon

DATA-DRIVEN MANAGEMENT AND MANAGEMENT INFORMATION SYSTEMS (MIS) IN

UZBEK HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-64

Djamilov Nurali

TARIX DARSLARIDA TARIXIY ATAMALARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK

TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH 65-67

Abdullayeva Muyassar

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TA'LIM MUHITIGA MOSLASHUVIDA SOG'LIQNI

SAQLASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI 68-70

TIBBIYOT FANLARI*Hurmatmatova Nigina*

ДЕМЕНЦИЯ: ЭТИОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

К РАННЕЙ ДИАГНОСТИКЕ 71-73

PSIXOLOGIYA FANLARI*Ismoilov Temurbek*

VERBAL KOMMUNIKATSIYA ORQALI AUDITORIYA BILAN

SAMARALI MULOQOT O'RNATISH 74-79

TARIX DARSLARIDA TARIXIY ATAMALARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Djamilov Nurali Murodillayevich,

Surxondaryo viloyati Boysun tumani 43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi.

Email: djamilovnurali@gmail.com

Tel: +998 93 311 31 19

ORCID: 0009-0000-4576-9516

Surxondaryo, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o'qitish jarayonida tarixiy atamalarni o'zlashtirish masalasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ilmiy tahlil etilgan. Tarixiy tushunchalarni o'qitishning didaktik ahamiyati ochib berilib, interfaol, muammoli, kompetensiyaga yo'naltirilgan hamda raqamli pedagogik texnologiyalarning tarixiy atamalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Tarixiy atamalar bilan ishlash o'quvchilarda tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omili ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: tarix darslari, tarixiy atamalar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, tarixiy tafakkur

MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING HISTORICAL TERMS IN HISTORY LESSONS

Djamilov Nurali Murodillaevich

History teacher at secondary school №43,
Boysun district,

Annotation. This article analyzes the teaching of historical terms in history lessons based on modern pedagogical technologies. The didactic significance of historical concepts is revealed, and the potential of interactive, problem-based, competency-oriented, and digital pedagogical technologies in forming historical terminology is examined. It is substantiated that working with historical terms plays an important role in developing students' historical thinking, critical reasoning, and communicative competencies.

Key words: historical terms, pedagogical technologies, interactive methods, competency-based approach, historical thinking, concept mapping (visual structuring).

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i1/n12>

Zamonaviy ta'lim tizimida fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va bilimlarni amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda mazkur masala alohida ahamiyat kasb etadi, chunki tarixiy bilimlar o'quvchining dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi va tarixiy xotirasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, tarix fanining tushunchaviy apparatini tashkil etuvchi tarixiy atamalarni samarali o'qitish muammosi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat ta'lim standartlarida tarix fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida tarixiy tushunchalar bilan ishlash, manbalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini

shakllantirish vazifalari belgilangan [1; 18–20-b.]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Akademik X.Ibragimovning fikricha, pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishning ilmiy asoslangan tizimi bo'lib, u ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [2; 47–49-b.].

Tarix fanining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u ko'plab tarixiy tushunchalar va atamalar tizimiga tayangan holda o'rganiladi. "Davlat", "sivilizatsiya", "imperiya", "reforma", "modernizatsiya", "mustamlakachilik" kabi atamalarni anglamagan o'quvchi tarixiy voqealarning mohiyatini to'liq tushunib yetolmaydi. Shu bois tarixiy atamalarni o'qitish tarix darslarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarixiy atamalar tarixiy jarayonlar, voqealar va ijtimoiy munosabatlarni umumlashtiruvchi ilmiy tushunchalar sifatida tarix fanining mazmunini belgilaydi. O'quvchi tarixiy atamalarning mazmun-mohiyatini anglamasdan turib tarixiy hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini to'liq tushunib yetolmaydi. Shodmonov va Turg'unov ta'kidlaganidek, tushunchaviy bilimlar yetarli darajada shakllanmagan sharoitda tarixiy bilimlar fragmentar xarakter kasb etadi va chuqur tafakkur rivojlanmaydi [3; 112–114-b.]. Shu sababli tarix darslarida tarixiy atamalarni o'qitish faqat ta'rif berish bilan cheklanmasdan, ularni o'quv faoliyati jarayonida anglash va qo'llashga yo'naltirilishi zarur.

Tarix darslarida tarixiy atamalarni o'qitish quyidagi pedagogik vazifalarni bajaradi:

- tarixiy voqealarning mohiyatini anglash;
- sabab va oqibat bog'liqliklarini aniqlash;
- tarixiy jarayonlarni umumlashtirish;
- tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Shu nuqtai nazardan, tarixiy atamalarni faqat ta'rif berish orqali emas, balki ularni faol o'quv faoliyati jarayonida o'zlashtirish muhim hisoblanadi.

Tarixiy atamalarni o'qitishda interfaol pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Tarixiy atamalardan krossvord tuzish, ularni og'zaki izohlash, savol-javob shaklda qo'llash keng qo'llanadigan an'anaviy usullar hisoblasa-da, "Klaster", "aqliy hujum", "Venn diagrammasi", "insert" kabi metodlar yordamida o'quvchilar yangi tarixiy atamalarni mavjud bilimlari bilan bog'lab, ularni solishtirishi va tahlil qilishi mumkin. Masalan, "imperiya", "davlat", "konfederatsiya" kabi tushunchalarni solishtirish jarayonida o'quvchi ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlaydi, bu esa terminologik tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Interfaol metodlar shuningdek o'quvchilarning muloqot madaniyati va fikrni asoslab bayon etish kompetensiyalarini shakllantiradi.

"Konseptual xarita + muammoli vaziyat" texnologiyasi tarixiy atamalarni o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'zida mujassam etgan samarali model hisoblanadi. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar orqali muammoli vaziyat (motivatsiya) yaratadi. O'qituvchining mazkur savoliga o'tilayotgan tarixiy yoki zamonaviy davlatning boshqaruvi bilan bog'liq "monarxiya", "demokratiya", "Respublika", "imperiya" atamalarini, ishlab chiqarishga oid "tovar xo'jaligi", "ichki bozor", "kapital" kabi terminlarni, ijtimoiy hayotni ifodalovchi tabaqalar, yer egaligi, soliq turlari bilan bo'g'liq atamalarni o'quvchilar o'zlari aniqlaydi. Ularni konseptual xarita ko'rinishida tizimli joylashtirishadi. Bunda tarixiy atamalar tayyor ta'rif sifatida emas, balki tahlil, taqqoslash va muammo yechish jarayonida o'quvchi

tomonidan mustaqil kashf etiladi. Natijada, o'quvchi tarixiy atamalarni mexanik yodlamaydi, balki, tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni tushunib yetadi va uzoq muddat xotirada saqlanadi. Ushbu jihatdan "Konseptual xarita + muammoli vaziyat" texnologiyasini tarix darslarida har qanday tarixiy mavzuga qo'llasa bo'ladi.

Bundan tashqari, tarix fani o'qituvchisi o'z tajribasi, dars beradigan sinf muhiti, o'quvchilar yoshi va psixologiyasidan kelib chiqqan holda interfaol metodlarni individual tarzda ishlab chiqishi yoki bir qancha metodlarni intergratsiya qilgan holda yangi metod yaratishi mumkin.

Muammoli ta'lim texnologiyasi tarixiy atamalarni o'qitishda alohida samaradorlikka ega. Ushbu texnologiya o'quvchini tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki muammoni hal etish jarayonida bilimni mustaqil kashf etuvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Masalan, "modernizatsiya", "sivilizatsiya" kabi tushunchalarni o'rganishda turli mamlakatlar tarixiy tajribalarini tahlil qilish orqali o'quvchilar mazkur atamaning mazmunini mustaqil ravishda aniqlashga erishadilar. Karimova ta'kidlaganidek, muammoli vaziyatlar asosida shakllangan tushunchalar o'quvchi xotirasida barqaror saqlanadi [4; 36–38-b.].

Kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv tarixiy atamalarni o'qitishda ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishga alohida e'tibor qaratadi. Bu jarayonda tarixiy atamalar nafaqat bilim elementi, balki tarixiy tafakkurni rivojlantirish, faol ijtimoiy fuqarolik, axborot bilan ishlash, muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish vositasiga aylanadi. O'quvchilar tarixiy atamalar asosida tarixiy voqealarni baholash, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan taqqoslash va xulosalar chiqarishga o'rganadilar [2; 91–93-b.].

Zamonaviy raqamli pedagogik texnologiyalar tarixiy atamalarni o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Virtual xaritalar, infografikalar, interaktiv taqdimotlar va raqamli tarixiy manbalar tarixiy tushunchalarni vizual idrok etish imkonini beradi. Yuldashevaning tadqiqotlariga ko'ra, raqamli vositalar yordamida o'qitilgan tarixiy tushunchalar o'quvchilar tomonidan an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq o'zlashtiriladi [5; 44–46-b.].

Shunday qilib, tarix darslarida tarixiy atamalarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Tarix o'qituvchisi ushbu texnologiyalarni maqsadli va izchil qo'llagan holda ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'lim fanlari bo'yicha davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2017.
2. Ibragimov X.I. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim innovatsiyalari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Shodmonov E., Turg'unov S. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Karimova R. "Tarix ta'limida muammoli yondashuv masalalari." Pedagogik tadqiqotlar, 2022, №2.
5. Yuldasheva M. "Tarix fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish." Ta'lim va innovatsiya, 2021, №3.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2-jild, 1-son (yanvar, 2026-yil). – 80 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 8-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.